


Fanlar akademiyasi olimlari “Innoweek-2022” xalqaro innovatsion g’oyalar haftaligida ishtirok etmoqda

Bugun, 18-oktyabr kuni “Innoweek-2022” xalqaro innovatsion g’oyalar haftaligiga start berildi.





Ko'rgazmada Fanlar akademiyasi ilmiy tashkilotlari - O'simlik moddalari kimyosi, Bioorganik kimyo, Zoologiya, Botanika, Yadro fizikasi, Materialshunoslik, Seysmologiya, Matematika, Sharqshunoslik, Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutlari, Xorazm Ma'mun akademiyasi va Navoiy bo'limi olimlari o'zlarining 50 dan ortiq ilmiy ishlanmalari bilan ishtirok etmoqda.





